

**SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIYNING “AVORIF UL-MAORIF”
ASARIDA XULQ-ATVOR GO’YALARINING OBRAZLI FAOLIYATI**

Murodov Shuhrat Sharipovich

Buxoro shahar 27-maktab internati tarix fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shihobiddin Abuhafs Umar Suhravardiyning asosiy asarlaridan biri “Avorif-ul maorif”, undagi axloqiy-tarbiyaviy g’oyalar haqida so’z yuritiladi. Shuningdek, so’fiylarning xulq-atvori asosini tashkil etuvchi axloqiy me’yorlar, ustoz-shogird odobi haqidagi qarashlari tahlil ostiga olinadi.

Kalit so’zlar: “Avorif ul-maorif”, xushkayfiyatatlilik, qanoatli bo’lish, nafrat va g’azabdan voz kechish, xulq-atvor, axloqiy fazilatlar, ichki va tashqi madaniyat, qalbning zohiriyligi va botiniy poklanishi.

Bugungi kunda, milliy o’zlikni anglash, millatning tub ildizlarini o’rganish, turkiy xalqlarning pedagogik dunyoqarashini paydo bo’lishi va rivojlanishiga bag’ishlangan tadqiqotlar dolzarb ehtiyojga aylanmoqda. Shu sababdan, tasavvuf ilmining mashhur namoyandalaridan biri, Suhravardiya tariqati asoschisi – Shihobiddin Abuhafs Umar Suhravardiy (1145-1234) ning ijodi va uning axloqiy, tarbiyaviy, pedagogik qarashlarini o’rganish katta ahamiyat kasb etadi. Shihobiddin Abuhafs Umar Suhravardiy 12-13-asrlar diniy-falsafiy tafakkurining mashhur namoyandalaridan biri, diplomat, notiq va adabiyot arbobi. Shuni ta’kidlash kerakki, Shihobiddin Abuhafs Umar Suhravardiyni o’sha davrda yashab ijod qilgan boshqa bir faylasuf, so’fiylik namoyandasini, uning hamyurti Shihobuddin Yahyo Suhravardiy (1154-1191) bilan adashtirib yubormaslik kerak. Shihobiddin Yahyo ibn Habash ibn Amirak as-Suhravardiy fors faylasufi va tasavvuf olimi bo’lib, u ham Shihobiddin Abuhafs Umar Suhravardiy kabi Jibol viloyatining Suhravard shahrida tug’ligan. U “Al-Ishroq” falsafasining muallifi bo’lib, “Shayx al-Ishroq” nomi bilan mashhur. Tadqiqotimizning markaziy shaxsi bo’lgan Shihobiddin Abuhafs Umar

Suhravardiy esa, ko'proq o'zining odob-axloq, so'fiylik va tasavvufga oid asarlari bilan mashhurdir. Shihobiddin Suhravardiy 1145-yilda Eronning Jibol viloyati, Suhravard qishlog'ida tug'ilgan. Manbalarda keltirilishicha, Shihobiddin Suhravardiyning shajarasi Payg'ambar (s.a.v.)ning amakilari, solih xalifalardan biri – Abubakr Siddiqga borib taqaladi[4]. U Bag'doddagi va Nizomiyya madrasasida amakisi Ziyovuddin Abunajib Suhravardiy qo'lida tahsil olib, o'z davrining diniy ilmlari, diniy huquq, arab tili, grammatika, adabiyot va notiqlik ilmlarini o'rgangan. Yigirma yoshga to'lgach u Nizomiyya madrasasida o'qishni tashlab, zohidona hayot kechira boshlaydi va ko'p mamlakatlarga sayohat qiladi. Isfahonga yetib keladi va u yerda Ahmad al-Gazzoliydan ta'lim olishni boshlaydi. "1194-1225 yillar oralig'ida Umar Suhravardiy xalifa Nosir-addinalloh (1180-1225 yy.) bilan do'stlashadi va uning xizmatida bo'lib, bir qator o'lkalarga uning elchisi sifatida muhim topshiriqlarni bajarish maqsadida yuboriladi" [2]. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Shihobiddin Suhravardiy o'z tariqati "Suhravardiya" tariqatiga asos solgan bo'lib, "keyinchalik Suhravardiylik Hindiston (Sind, Panjob Mo'lton, Gujarat)da tarqalgan va chishtiylik bilan bir qatorda eng ta'sirli tariqat sanalgan, dastlabki davrda bu mamlakatga kelib qolgan kamsonli musulmonlarni birlashtirishda muhim rol o'ynagan.[1] "Suhravardiya" tariqati ko'p asrlar davomida O'rta Osiyo, Eron, Iraq, Afg'oniston, Pokiston va Hindistonda ko'plab mutafakkirlar, ilohiyotchilar va izdoshlarni birlashtirgan.

Shihobiddin Suhravardiy asarlari ichida o'zining keng qamrovligi, kuchli g'oyaviy mazmuni bilan ahamiyat kasb etuvchi asar "Avorif ul-maorif" bo'lib, Suhravardiy uni 1216-yilda yozib tugatgan. Xalifa an-Nosirga bag'ishlagan "Avorif al-maorif" risolasi uning asarlari orasida eng mashhuri hisoblanadi. Ushbu asar so'fiylar uchun qo'llanma sifatida yaratilgan bo'lib, ko'p tillarga tarjima qilingan. "Bu kitob keyingi davrlarda yashagan barcha so'fiylarning avlodlari uchun axloq va amaliyot bo'yicha qo'llanma sanalgan"[1]. "Avorif ul-maorif" asari hozirgi kungacha Eron, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Turkiya va Saudiya Arabistonidagi turli so'fiylik mazhablari vakillari uchun darslik bo'lib xizmat qilmoqda. Mutafakkirning asosiy asarlaridan biri "Avorif ul-maorif" kirish va 63

bobdan iborat bo'lib, mazkur asarda so'fiylik ilmining paydo bo'lism sabablari va afzalliklari, uning qalb poklanishiga ta'siri (tasfiyat al-qalb), so'fiylik ilmlarining fazilatalari tahlil qilinadi (1-4 boblar), tasavvufning mohiyati va bu tushunchaning etimologiyasi, so'fiy nisbati kimlarga berilishi, mutasavvuf va mutashabbehlar haqida so'z boradi (5-9 bob); so'fiy shayxlari haqida tushuntirish beriladi (10-15 boblar), so'fiylarning safardagi majburiyatları, ularning safardan kelish, rabotga kirish va undagi odob borasidagi masalalar ko'rib chiqiladi (16-18 boblar), mutasabbib so'fiylar bayon qilinadi, yolg'iz hayot kechiruvchi va turmush qurgan so'fiylar haqida so'z boradi (19-21 boblar); simo' va uning qoidalari tasvirlanadi (22-25 boblar); so'fiylar chillasining tartiblari beriladi (26-28 boblar); so'fiylarning axloqi (29-30 boblar); xulq-atvor, dinga kirish, tahorat, namoz, ro'za, uplash va uyg'onish, kiyim-kechak va ovqatlanish qoidalari (31-43 boblar); so'fiylarning liboslari, tungi ibodat, kunduzi qilinadigan amallar ko'rib chiqiladi (44-50 boblar). Murid va shayxning odobi (51-52 boblar), suhbat qurish odobi (53-56 boblar), so'fiylarning mukoshafasi, xotirasi, o'y-fikrlar (56-61 boblar), shuningdek, so'fiylik atamalariga sharhlar va xulosalar berilgan (62-63 boblar).

Asar mazmunidan kelib chiqadiki, Shihobiddin Suhravardiy tasavvufining amaliy jihatlariga alohida e'tibor bergan. U tasavvufiy yo'ldan borgan "sayohatchi"larning (so'fiylarning) xulq-atvori va bilim olish jarayonini islom fiqhi asosida sinchiklab tahlil qiladi, o'z fikrlarini Qur'on oyatlari, turli so'fiylarning ibratli hikoyalari va so'zlari bilan mustahkamlaydi. Shihobiddin Suhravardiyning "Avorif ul-maorif" asari o'zida ta'lim, tarbiya, odob-axloq g'oyalarini singdirgan asar bo'lib, garchi tasavvufiy ruhda yozilgan bo'lsa-da, uning markziy mohiyati bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Shu bilan bir qatorda, "Avorif ul-maorif" da keltirilgan insonni kamol toptirishga qaratilgan axloqiy harakatlar, xulqni takomillashtirish, yetuk xulq-atvor, axloqiy fazilatlar, ichki va tashqi madaniyat, qalbning zohiriy va botiniy poklanishi, o'zlikni isloh qilish, sahovat va yaxshi xulq bilan ziynatlanish kabi masalalar keltirilgan bo'lib, mutafakkir o'z fikrlarini Payg'ambarimizning xulq-atvoriga oid misollar bilan dalillaydi. Suhravardiy "Avorif ul-ma'orifda" Payg'ambar alayhissalomning "Men yaxshi

xulqlarni kamolga yetkazish uchun yuborilganman”[5]. degan so'zlarini keltirishi ham fikrimizni yana bir tasdiqlaydi.

Sh.Murtozayevning ta'kidlashicha, “Suhravardiy maqtovli sifatlar deganda payg'ambar sifatlarini nazarda tutadi. Taqdirning axloqiy ma'nosi shaxs xulqining natijasini ifodalaydi. Inson umrining mazmuni u tanlagan va bosib o'tgan yo'l, jamiyatga va odamlarga qilgan yaxshiliklari hisoblanadi. Unda (ya'ni, ulug' xulqda) to'rt narsa jamuljam bo'ladi, saxovat, do'stlik, nasihat va shafqat”[2]. Suhravardiy ezgu fazilatlar tasviri haqida so'z yuritar ekan, har bir yetuk shaxs Payg'ambarimizda mavjud bo'lgan xulq-atvor va odob-axloqqa ega bo'lish kerakligiga urg'u beradi. Shuningdek, Suhravardiy ezgu fazilatlar qatoriga vijdonlilik, qalb yumshoqligi, sabr-toqat, kechirimlilik, hamdardlik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, itoatkorlik, xotirjamlik, qanoat va xushmuomalalik kabilarni misol qilib keltiradi. Uning fikricha, ilm oluvchi inson Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga xos barcha go'zal xislatlar bilan o'zini ziynatlashi lozim. U ruhni quq qiladigan nafs hukmronligidan qutulishi kerak, shundagina u haqiqiy so'fiy bo'ladi. Yaxshi xulq-atvorga ega bo'lish uchun uzoq muddat ta'lim olish, doimiy kuzatishda bo'lish va odob-axloq qoidalariga rioya qilish kerak. Yomon axloqli odam boshqalarda yaxshi taassurot qoldira olmaydi. Bundan tashqari, uning shaxsiyati va axloqiy fazilatlari boshqalar orasida hayrat yoki nafrat tuyg'usini uyg'otishi mumkin. Bundan tashqari, Suhravardiy “Avorif-ul maorif”da so'fiylarning xulq-atvori asosini tashkil etuvchi axloqiy me'yirlarni ko'rib chiqadi. So'fiyga buyurilgan bunday axloqiy me'yorlar qatoriga quyidagilar kiradi:

Bo'ysunish (tavoze). Suhravardiyning fikriga ko'ra, kim qalbida tavozeni joylashtirsa, uning Alloh bilan muloqoti oson bo'ladi, u bilan muloqotda tinchlikka erishadi. Suhravardiy tavozeli bo'lishni so'fiyning eng olijanob xislatlaridan biri deb hisoblaydi. Odamning tafakkur nurlari (mushahodasi) ko'ngilga tushib, aql oldida taslim bo'lgandagina haqiqatni anglaydi va shu nur ostida uning ruhi erib ketadi. Erib borar ekan, takabburlik va manmanlik yo'qoladi, tavoze va bo'ysunish paydo bo'ladi. Agar kimdir takabburlik ko'rsatsa, bu uning qalbining ojiz va zaifligini ko'rsatadi.

Xushmuomalalik va **muloymilik**. Odamlarga xushmuomalalik ko'rsatish so'fiy uchun zarur, deydi Suhravardiy. Har bir narsaning o'z mohiyati bo'lgani kabi, insonning mohiyati aql, aqlning mohiyati esa sabrdir. Odamlarga xushmuomalalik ko'rsatish qalbdagi zahar, yengiltaklik va g'azabning yo'qolishiga, hamda do'stlar o'rtasidagi sevgi va hurmatni saqlashga yordam beradi, deb tushuntiradi shayx. ROTLARI 2024, 3-SON

Xayr-ehson qilish. Sadaqa mehr va rahm-shafqatning ko'pligidan dalolat beradi, deya ta'kidlaydi Suhravardiy, so'fiy muhtojlarga ehson qiladi, o'zida yo'q bo'lsa ham, topmasa ham sabr qiladi.

Yomonlikni kechirish (afv dar muqobili ranj). Suhravardiy shunday deb yozadi: "Ehson – senga yomonlik qilgan kishiga yaxshilik qilishingdir".[4] Olijanoblik aka-uka va do'stlarning qilmishlarini kechira olishdadir.

Xushkayfiyatlichkeit, ko'ngil va qalbning xushchaqchaqligi va shodligi (xushtab'i). Shodlik qalb nuridan dalolat beradi, deydi Suhravardiy.

Qanoatli bo'lism. Tasavvufda qanoat bor narsaga, hayotga qanoat qilmoq deganidir. Alloh bergen narsaga qanoat qilish va sabr qilish lozim. Bu mulkning mavjudligi uning yo'qligidan qat'iy nazar, boriga sabr qilishdir va u insonni mulkning o'zidan ham ko'ra ko'proq xursand qiladi. Qanoatli odamda mulkka qaramlik bo'lmaydi va uning ortidan quvmaydi. Suhravardiy qanoat (mavjud narsadan qanoatlanish) va rizo (oz narsaga qanoat) konspetlarini bir-biridan farqlaydi.

Nafrat va g'azabdan voz kechish (tarki husumat). So'fiy o'z qalbini va vujudini loqaydlik, adovat, yomonlik va qasos tuyg'usidan tozalashi kerak.

Shukronalik. Shukr - bizga berilgan ne'matlarni e'tirof etish va anglash, bu ne'matlardan o'z maqsadiga ko'ra foydalanish va bu ne'matlar uchun Allohga shukr qilishdir. Suhravardiy shukr (minnatdorchilik) va hamd (maqtov)ni br-biridan farqlash lozimligini qayd etadi. Hamd buyuklikka nisbatan hayrat va go'zallikni ifodalovchi maqtov bo'lsa, shukr berilgan foyda yoki ne'mat uchun minnatdorchilik bildirishdir. Suhravardiy so'fiylarning o'z shayxi bilan muomala odobiga katta e'tibor beradi. Suhravardiyning fikricha, ilm oluvchi shaxs uchun eng muhim narsa

odobni saqlashdir. Shogird ustoziga qarshi chiqmasligi va e'tiroz bildirmasligi kerak. Ustozining ko'rsatmalariga amal qilishi, u bilan gaplashayotganda ovozini ko'tarmasligi, qo'l silkitmasligi, gapirganda fikrini qisqa-lo'nda ifodalashi kerak.U ustoziga boshini egaib, ta'zim qilib salom berishi kerak. Shogird o'z ustozini boshqa ustoz bilan almashtrasligi, uni aldamasligi lozim. Shogird ustozining kayfiyatini sezishi kerak. U o'z harakatlarini undan yashirmasligi kerak.

Xulosa tarzida shuni ta'kidlash lozimki, Shihobiddin Suhravardiyning "Avorig ul-maorif" asari o'z davrida tasavvuf ilmida amalga oshirilgan eng asosiy ishlardan biri bo'lib, unda vijdonlilik, qalb yumshoqligi, sabr-toqat, kechirimlilik, hamdardlik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, itoatkorlik, xotirjamlik, qanoat va xushmuomalalik kabi ezgu fazilatlar haqida so'z boradi. Suhravardiy "Avorif-ul maorif"da so'fiylarning xulq-atvori asosini tashkil etuvchi axloqiy me'yorlar haqida bayon qilar ekan, bo'ysunish (tavoze), xushmuomalalik va muloyimlik, xayr-ehson qilish, yomonlikni kechirish, xushkayfiyatlilik, ko'ngil va qalbning xushchaqchaqligi, shodligi, qanoatli bo'lish, nafrat va g'azabdan voz kechish, shukronalikning ahamiyatini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom ensiklopediyasi. Zuhriiddin Husniddinov tahriri ostida, "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 272-273 betlar
2. Murtozayev Sh.B., Shihobiddin Suhravardiyning "Avorif ul-maorif" ("Ma'rifatni anglaganlar") asari va uning gnoseologik ta'limoti. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Buxoro, 2023. 130 b
3. Мансурова З.А. Проблемы текстологии и поэтики стиля «Мисбах аль Хидая ва Мифтах аль-Кифая» Иззуддина Махмуда Кашани». Автореферат диссертации на соискании ученой степени кандидата филологических наук, Душанбе, 2021, с 5.
4. Сухраварди. Авариф ал-маариф. С. 115.
5. المعارف عوارف . سهورو دیالین شهاب Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi, hujjatlar fondi 21125/11. .- 96 b.